
5. Empirik tadqiqotlar va tajriba natijalari. Dasturlashtirilgan ta’lim asosida texnologiya fanini o‘qitishning samaradorligini o‘rganish maqsadida tajriba sinovlari o‘tkazildi. Tadqiqot quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

•o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi 30–40% ga oshdi;
•o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari sezilarli ravishda yaxshilandi;
•talabalar mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirdi;
•STEM yondashuvi orqali fanlararo bog‘liqlik oshdi.



Xulosa. Dasturlashtirilgan ta’lim vositalari texnologiya fanida zamonaviy ta’lim jarayonini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu metodika orqali talabalarning qiziqishi oshadi, mustaqil ta’lim olish imkoniyati kengayadi va innovatsion yondashuvlar amaliyotga joriy qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dasturlashtirilgan ta’lim texnologiya fanini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Skinner B.F. (1954). "The Science of Learning and the Art of Teaching". Harvard Educational Review.
(2). Anderson J. (2005). "Learning and Memory: An Integrated Approach". Wiley.
(3). Khan Academy. (2023). "Online Education and Technology Integration".
(4). Coursera. (2022). "Modern Teaching Techniques in STEM Education".
(5). Moodle Documentation. (2023). "Using LMS for Distance Learning".
(6). Mingboyev N.S., Jumanov I.I. “Informatika”. Samarqand, SamDU nashri, 2002l.
(7). “Sirtqi ta’limda o‘qitishning innovatsion texnologiyalari: muammo va yechimlar”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami, Qarshi, 2022, 15–16-aprel.

Narmurodova Dilfuza Abdixoliq qizi (Termiz davlat universiteti tayanch doktaranti; dilfuzaqurbonova91@gmail.com)

IELTS SPEAKING KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA CHATGPTDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada IELTS speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda sun’iy intellekt asosidagi ChatGPT platformasidan foydalanishning samaradorligi tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida talabalar nutqini yozib olish, uni transkripsiya qilish, sun’iy intellekt yordamida tahlil etish hamda takomillashtirishga qaratilgan tizimli mashqlar majmuasi qo‘llanilgan. Natijalar tahlili ishtirokchilarning speaking ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy o‘sish kuzatilganini ko‘rsatdi. Shuningdek, muntazam mashq, refleksiya va tezkor fikr-mulohaza olish imkoniyati mazkur yondashuvning samaradorligini namoyon qilgan.*

Kalit so‘zlar: *IELTS speaking, sun’iy intellekt, ChatGPT, nutqiy kompetensiya, refleksiya, tezkor fikr-mulohaza, ingliz tili o‘qitish.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ CHATGPT ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ В IELTS

Аннотация. *В данной статье представлено комплексное исследование эффективности использования ChatGPT платформы, основанной на технологиях искусственного интеллекта, в процессе развития навыков устной речи в рамках подготовки к экзамену IELTS. В ходе исследования был реализован комплекс структурированных упражнений, включающий запись устной речи обучающихся, её последующее транскрибирование, аналитическую обработку с применением инструментов искусственного интеллекта, а также поэтапное совершенствование речевых навыков. Полученные результаты свидетельствуют о значительном повышении уровня сформированности навыков устной речи у участников исследования. Регулярная практика, развитие рефлексивных умений и обеспечение оперативной обратной связи в совокупности подтверждают высокую эффективность предлагаемого подхода.*

Ключевые слова: *IELTS speaking, искусственный интеллект, ChatGPT, речевая компетенция, рефлексия, обратная связь, обучение английскому языку.*

THE USE OF CHATGPT IN DEVELOPING IELTS SPEAKING SKILLS

Annotation. *This article explores the effectiveness of utilizing ChatGPT, an artificial intelligence–based platform, in the development of IELTS speaking skills. The study implemented a structured set of activities, including recording students' speech, transcribing it into written form, analyzing it through artificial intelligence, and subsequently enhancing it. The results reveal a significant improvement in the participants' speaking performance. Regular practice, reflection, and the availability of immediate feedback further underscore the effectiveness of this approach.*

Keywords: *IELTS speaking, artificial intelligence, ChatGPT, speaking proficiency, reflection, immediate feedback, English language teaching.*

Kirish. Globallashuv sharoitida xorijiy universitetlarda ta'lim olish uchun ingliz tilini bilish darajasini namoyon etish muhim talabga aylanib bormoqda. Eng keng e'tirof etilgan baholash tizimlaridan biri bu IELTS bo'lib, u o'qish, tinglash, yozish va gapirish kabi to'rtta asosiy til ko'nikmasini baholaydi. Ushbu ko'nikmalar ichida speaking (gapirish) talabalarning samarali va ravon muloqot qilish qobiliyatini aniqlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida ham chet tillarini o'qitish sifatini oshirish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Chet tillarni o'rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5117-qarorida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish vazifalari belgilangan [1]. Biroq an'anaviy ingliz tili ta'limi jarayonida speaking ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar yaratish ko'pincha qiyin kechadi. Dars vaqtining cheklanganligi, guruhlarning katta bo'lishi hamda individual mashq qilish imkoniyatlarining yetishmasligi talabalarning og'zaki nutq malakasini samarali rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt sohasidagi yutuqlar til ta'limida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Xususan, ChatGPT kabi vositalar talabalarga mustaqil ravishda nutqni mashq qilish, xatolarini aniqlash va doimiy fikr-mulohaza asosida o'z ko'nikmalarini takomillashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv individual o'rganishni rag'batlantiradi, refleksiya jarayonini kuchaytiradi hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ingliz tilini o'qitish jarayonida nutqiy ko'nikmalarni, xususan, speaking kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy metodikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda og'zaki nutqni rivojlantirishda kommunikativ yondashuv, refleksiv tahlil hamda muntazam mashqning ahamiyati alohida ta'kidlanmoqda.

Xususan, Merrill Swain tomonidan ilgari surilgan "languaging" nazariyasiga ko'ra, o'quvchilarning o'z nutqini tahlil qilishi va qayta ishlashi til o'zlashtirish samaradorligini oshiradi [2]. Ushbu yondashuv speaking ko'nikmalarini rivojlantirishda refleksiya va teskari aloqaning muhimligini asoslaydi.

Rod Ellis esa ikkinchi tilni o'rganishda amaliy nutq faoliyati va muntazam mashq qilish muhim ahamiyat kasb etishini, ayniqsa speaking ko'nikmalarini rivojlantirishda faol ishtirok zarurligini qayd etadi [3].

Zamonaviy tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining til o'rganish jarayoniga integratsiyasi alohida e'tibor qaratilmoqda. Hayo Reinders va Philip Hubbard raqamli vositalar o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyatini rivojlantirishini hamda ularning til o'rganish jarayonidagi faolligini oshirishini ta'kidlaydilar [4].


Shuningdek, UNESCO hisobotlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini individuallashtirish va tezkor fikr-mulohaza berishdagi ahamiyati alohida qayd etilgan [5].

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt asosidagi chatbotlar, xususan, ChatGPT kabi vositalarning ingliz tilida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari keng o‘rganilmoqda. Tadqiqotlarda bunday texnologiyalar talabalarga mustaqil mashq qilish, tezkor va individual fikr-mulohaza olish hamda o‘z nutqini takomillashtirish imkonini berishi qayd etilgan [6].

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy hamda amaliy yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shu bilan birga, IELTS speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida talabalarning IELTS speaking ko‘nikmalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, ularning nutq ravonligi, grammatik aniqligi va leksik boyligida barqaror o‘sish qayd etildi. O‘tkazilgan sinov (mock test) natijalari ham umumiy ko‘rsatkichlarning yaxshilanganini tasdiqladi, talabalar o‘z nutqidagi xatolarni mustaqil aniqlash va ularni bartaraf etish ko‘nikmalarini shakllantira boshladilar. Refleksiya asosida ishlash esa o‘z-o‘zini nazorat qilish va rivojlantirish kompetensiyalarini mustahkamladi. So‘rovnoma natijalari ham ishtirokchilarning aksariyati mazkur yondashuvni samarali deb baholaganini ko‘rsatdi.


Tadqiqot natijalarining dinamikasi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. ChatGPT asosida o‘qitish jarayonining samaradorlik dinamikasi (oldin va keyin taqqoslash).

1-rasm tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ijobiy o‘sish kuzatiladi. Ayniqsa, speaking ko‘nikmalari, talabalar qoniqish darajasi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘rsatkichlarida yuqori o‘sish qayd etilgan. Shu bilan birga, xatolarni aniqlash va test natijalari ham barqaror ijobiy dinamikani namoyon etadi.

IELTS speaking ko‘nikmalarining sifat o‘zgarishi modeli 2-rasmda aks ettorilgan.



2-rasm. IELTS speaking ko‘nikmalarining sifat o‘zgarishi (qualitative model).

Mazkur diagrammada tadqiqot jarayonida talabalarning speaking ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar sifat ko‘rsatkichlari asosida ifodalangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, barcha indikatorlar bo‘yicha past darajadan yuqori darajaga tomon barqaror o‘sish kuzatiladi. Ayniqsa, nutq ravonligi, leksik boylik va umumiy test natijalarida sezilarli ijobiy siljish qayd etilgan. Ushbu model sun’iy intellekt asosidagi yondashuvning ko‘nikmalarni kompleks rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ChatGPT asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Muhokama. ChatGPT platformasidan foydalanish IELTS speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali yondashuv ekanligi kuzatildi. Nutq ravonligi, grammatik aniqlik va leksik boylikdagi ijobiy o‘zgarishlar muntazam mashq hamda tezkor fikr-mulohaza bilan bog‘liq.

Qo‘llanilgan metodika – nutqni yozib olish, transkripsiya qilish va tahlil qilish – refleksiya va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirib, mustaqil o‘rganish faoliyatini faollashtirdi hamda, sun’iy intellekt asosidagi yondashuv individual o‘rganish muhitini ta’minlab, talabalarning ehtiyojlariga mos rivojlanishiga xizmat qildi. Biroq texnologiyadan foydalanish darajasi hamda fikr-mulohazani to‘g‘ri talqin qilish omillari o‘rganish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur yondashuv speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali va istiqbolli hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari IELTS speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy raqamli vositalar, xususan, ChatGPT asosidagi yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Ushbu yondashuv nutq ravonligi, grammatik aniqlik hamda leksik kompetensiyaning izchil rivojlanishini ta’minlashi aniqlandi. Muntazam mashq, refleksiya va tezkor fikr-mulohaza o‘quv jarayoni sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu asosda ingliz tili ta’limida sun’iy intellekt vositalaridan tizimli foydalanish, refleksiya va mustaqil tahlilni o‘quv jarayoniga chuqur integratsiya qilish, shuningdek, individual o‘rganish ehtiyojlariga mos raqamli yondashuvlarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘qituvchilarning texnologik-metodik tayyorgarligini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv til ta’limi sifatini oshirishga xizmat qiluvchi istiqbolli yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-qarori “Chet tillarni o‘rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent, 2021.

(2). Merrill Swain M. Languaging, agency and collaboration in advanced language proficiency. Byrnes H. (Ed.). Advanced Language Learning. London, Continuum, 2006, p. 95–108.

(3). Rod Ellis R. Task-based Language Learning and Teaching. Oxford, Oxford University Press, 2003, p. 211–220.

(4). Hayo Reinders H., Philip Hubbard P. CALL and learner autonomy: Affordances and constraints. Thomas M., Reinders H., Warschauer M. (Eds.). Contemporary Computer-Assisted Language Learning. London, Bloomsbury Academic, 2013, p. 359–375.

(5). UNESCO Artificial Intelligence in Education. Challenges and Opportunities for Sustainable Development. Paris, UNESCO Publishing, 2019, p. 27–34.

(6). OpenAI ChatGPT: Optimizing Language Models for Dialogue. 2023, Available at: https://openai.com

(7). Chapelle C.A. Computer-Assisted Language Learning: Foundations for Teaching, Testing and Research. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017, p. 112–118.

(8). Warschauer M. Technology and Social Inclusion: Rethinking the Digital Divide. Cambridge, MIT Press, 2020, p. 64–70.

(9). Zine Laabidine H. L’intelligence artificielle: un allié à l’apprentissage du français langue étrangère. Korasat Tarbawiya. 2024, p. 23–29.

(10). Merrill Swain M. Communicative competence: Some roles of comprehensible input and output in its development. Gass S., Madden C. (Eds.). Input in Second Language Acquisition. New York, Newbury House, 1985, p. 235–253.

Avazova Lobar Buriyevna (Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM, “Rus tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi; avazovalobar7@gmail.com;Orcid:0009-0002-6944346X)

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA FAOLIYATIDA OILAVIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatida oilaviy qadriyatlarning tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Boburning farzandlariga, ota-onasiga va yaqinlariga bo‘lgan hurmati, oilaviy sadoqati hamda tarbiyaga oid qarashlari uning shaxsiy hayoti va davlat boshqaruvidagi faoliyatida*